

MIR MUHAMMAD AMIN BUXORIYNING
“UBAYDULLANOMA” ASARINING BUXORO XONLIGI
TARIXSHUNOSLIGIDA TUTGAN O‘RNI

Isomiddinova Umidaxon Baxridin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san’at” fakulteti

“Tarix” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro xonligining taniqli hukmdorlaridan biri bo‘lgan, Ubaydullaxonga bag‘ishlab yozilgan Mir Muhammad Amin Buxoriyning “Ubaydullanoma” asarining Buxoro xonligi tarixini o‘rganishdagi tutgan o‘rni va hozirgi zamon tarixshunoslik fanidagi ahamiyati bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *tarixshunoslik, hukmdor, davlat, imperiya, manbashunoslik, muarrix, fan, taraqqiyot, Ubaydullaxon, madaniyat, siyosat.*

Аннотация: *В данной статье описывается роль произведения Мир Мухаммада Амина Бухари «Убайдуллонама», посвященного Убайдулла-хану, одному из знаменитых правителей Бухарского ханства, в изучении истории Бухарского ханства и его значения в современной историографии.*

Ключевые слова: *историография, правитель, государство, империя, источниковедение, историк, наука, развитие, Убайдулла-хан, культура, политика.*

Annotation: *This article describes the role of Mir Muhammad Bukhari's work "Ubaidullanama" dedicated to Ubaidullah Khan, one of the famous rulers of Bukhara Khanate, in the study of the history of Bukhara Khanate and its importance in modern historiography.*

Key words: *historiography, ruler, state, empire, source studies, historian, science, development, Ubaydullah Khan, culture, politics.*

XVII-XVIII asrning birinchi yarmida Markaziy Osiyo xonliklarida qarama-qarshi va murakkab tarixiy jarayonlar kechdi. Ularni o‘rganishda voqea-

hodisalarga to'g'ri va xolis baho berishda bu davr oraliq'ida yaratilgan manbalar mahalliy muarrixlarning asarlari, arxiv hujatlari, Markaziy Osiyo hududiga XVI-XIX asrning birinchi yarmida tashrif buyurgan elchilar, sayohatchilar, harbiylar va boshqa shaxslarning xotiralari muhim o'rin tutadi.

XVII-XVIII asr boshlari tarixini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning "Muhit ut-tavorix" (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tole'ning "Abulfayzxon tarixi", Muhammad Yusuf Munishiyning "Muqimxon tarixi" asarlari shu davrning mahsulidir. Bundan tashqari Mahmud ibn Vali ("Bahr-ul asror"), Xoja Samandar Termiziyning "Dastur al-muluk" asari, Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma", Muhammad Vafo Karmanagiyning "Tuhfat ul-xoniy", Abdurahmon Davlatning "Tarixi Abulfayzxon" kabi tarixiy asarlari yaratildi. Subhonqulixonning zamondoshi shoir Turdi (1702-y vafot etgan) ning ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Ushbu asarlarning eng mashxuri Mir Muhammad Amin Buxoriyning "Ubaydullanoma" asaridir. Mir Muhammad Amin Buxoriy XVII asrda Buxoroda tug'ilib, Ashtarxoniyalar sulolasining taniqli tarixchisi va bosh munshiy sifatida tanilgan. U 1702–1711 yillarda hukmronlik qilgan Ubaydullaxon davrida yozilgan "Ubaydullanoma" asarining muallifi bo'lib, bu asar Buxoro xonligi tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Asar muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriy o'z davrining o'qimishli, fozil kishilaridan bo'lgan. 1645-yilda tug'ilgan, vafoti sanasi noma'lum. Subhonqulixon va Ubaydullaxon saroyida bosh munshiy vazifasida xizmat qilgan. "Ubaydullanoma" 1716-yildan keyin yozib tugallangan. Asar Buxoro xonligining 1702-1716- yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotidan bahs yuritadi. Asarning o'ndan ortiq nusxalari mavjud. "Ubaydullanoma" sharqshunos A.A.Semyonov tomonidan rus tiliga ilmiy-izohlar bilan to'la tarjima qilingan. "Ubaydullanoma"da yer egaligi va soliq turlari, davlat tuzumi, iqtisodiy muammolar, geografik va etnografik masalalar, turli qabilalar va ularning ijtimoiy mavqei xususidagi ma'lumotlar jamlangan. Xotimada muallif zamondoshlari bo'lmish buxorolik olim, shoirlar, masalan,

Sayyido Nasafiy, Qosimxo‘ja, Mulla Sarafroz, Mulham, shuningdek, qozilar haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Muallif Ubaydullaxon hukmronlik yillarini ikki davrga bo‘lib talqin qiladi. Birinchi davrdagi faoliyatiga ijobiy baho bergan holda, ikkinchi davrni tanqid va kinoyalarga o‘rab tashlaydi. Hukmronligining dastlabki yillarida xalq tinch, farovon, xavfsiz yashaganligi, shahar va qishloqlar gullab-yashnaganligi ta’kidlanadi. Obrazli qilib, “Ubaydullaxon podsholigining dastlabki yillarida qo‘zichoq ona sherni emardi,”- deb tasvirlaydi, muallif. Ikkinchi davrda xon to‘g‘ri yo‘ldan og‘ib, atrofiga qabih, razil, noqobil, diyonatsiz, xushomadgo‘y, maddohlarni to‘pladi va aynan shundaylar Ubaydullaxonni chalg‘itishdi, deyiladi asarda. Ko‘pchiligi o‘z maishatini o‘ylar, ko‘ngil xushlikni xush ko‘rar, ba‘zilari esa hatto muqaddas joylarda bazm-u jamshidlar qurishga moyil edi. Bunday shaxslar Ubaydullaxonga yaqinlashib olgach, mamlakatdagi haqiqiy ahvol to‘g‘risida xonga noto‘g‘ri, yolg‘on ma’lumotlar berdilar. Hunarmand va savdogarlar ham amalga qiziqib qolib, yuqori mansablarni egallashga harakat qildilar. Ubaydullaxon bu yaramas shaxslar bilan yaqinlashgach, olim-u fuzalolar suhbatidan uzoqlashdi. Amirlar va lashkarlar, vazirlar va ruhoniylar o‘rtasida nifoq paydo bo‘la boshladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “Ubaydullanoma”da zamon ulug‘lari ta’rifiga asarning xotima qismida muayyan o‘rin berilgan. Shulardan biri Oxund Mulla Usmon bo‘lib, u zamonasining e’tiborli diniy ulamolalaridan edi. Ubaydullaxon tez-tez uni o‘z majlislariga chaqirib, ma’rifiy suhbatlaridan bahra olgan.

Asarning mazmuni: "Ubaydullanoma" muqaddima, xotima va 80 bobdan iborat. Muqaddimada Abdulazizxon va Subhonqulixon davridagi Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli yoritilgan, asarning asosiy qismlari esa 1702–1716 yillardagi Buxoro xonligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlariga bag‘ishlangan. Unda davlat boshqaruvi, yer egaligi, soliq va jarimalar tizimi, shuningdek, iqtisodiy qiyinchiliklar va ularning sabablariga oid batafsil ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, "Ubaydullanoma"da etnografik va geografik ma’lumotlar ham mavjud. Bu asar orqali Buxoro xonligining ijtimoiy-

siyosiy holatini tahlil qilish, mamlakatning iqtisodiy inqirozi va markaziy hokimiyatning zaiflashishi kabi masalalarni o'rganish mumkin. Bu jihatdan asar Buxoro tarixidagi boshqa asarlar uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi[2].

Asarning ahamiyati: "Ubaydullanoma" Buxoro xonligining o'ziga xos davlat tizimini va jamiyat hayotini yoritib beruvchi noyob tarixiy hujjat sifatida qimmatlidir. Ubaydullaxon davridagi pul islohotlari, savdo munosabatlari va ijtimoiy hayotga oid ma'lumotlar ushbu davrning iqtisodiy ahvolini tushunishga yordam beradi. Asar tarixchilar uchun Ashtarxoniylar davrining aniq va batafsil tasvirini beradi.

Buxoro xonligi tarixida tutgan o'rni: "Ubaydullanoma" faqat tarixiy faktlar to'plami bo'lib qolmay, balki Buxoro xonligining madaniy va siyosiy merosini anglashda ham muhim manbadir. Asar orqali Markaziy Osiyo mintaqasida Ashtarxoniylar davridagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatni yanada yaxshiroq tushunish mumkin. Mir Muhammad Amin Buxoriy asarni yozishda nafaqat tarixiy faktlarni keltirgan, balki jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni ham tahlil qilgan.

Xulosa qilib aytganda, "Ubaydullanoma"ning qo'lyozmalari va tarjimalari orqali u Markaziy Osiyo tarixini xalqaro ilmiy hamjamiyatga tanitishda katta ahamiyat kasb etdi. Shuning uchun bu asar Buxoro xonligining siyosiy va madaniy merosini saqlash va o'rganishda ajralmas o'rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qahramon Rajabov, Sulaymon Inoyatov. "Buxoro tarixi". Toshkent, 2016.
2. Mir Muhammad Amin Buxoriy. "Ubaydullanoma". Buxoro, 2019.
3. Herman Vamberi. "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi". Toshkent, 2019.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil.
5. Qahramon Rajabov va Sulaymon Inoyatov. "Buxoro tarixi." Toshkent, 2016.